


**XORAZM VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**

**2023- YIL YANVAR-FEVRAL
OYLARIDA**





2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalisiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi

64,8 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi

60,0 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
906,0 ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
105,5 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
1 758,7 mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
107,3 %

2023- yil yanvar-fevral


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 758,7** mlrd so'mga yetib, taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,3 %**ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oylarida)





2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	1758,7	107,3
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	101,5	126,4
Moliyaviy xizmatlar	419,8	119,5
Transport xizmatlari	377,6	102,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	353,2	98,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	42,9	99,4
Savdo xizmatlari	425,8	100,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	41,9	101,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	69,9	114,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	37,3	102,5
Ijara xizmatlari	28,7	99,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	74,3	104,2
Shaxsiy xizmatlar	67,3	103,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	29,4	109,6
Boshqa xizmatlar	42,5	99,3




2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Boshqa xizmatlar




Yashash va ovqatlanish xizmatlari




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Ijara xizmatlari

Savdo xizmatlari

24,2 %

Moliyaviy xizmatlar

23,9 %

Transport xizmatlari

21,5 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,8 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

4,2 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

4,0 %

Shaxsiy xizmatlar

3,8 %



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **24,2** %ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,2** %ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **25,6** %ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **2,1** %.

2023- yil yanvar-fevral oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**119,5** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**126,4** %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**109,6** %) va ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**114,3** %) qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida boshqa xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (124,0 %), moliyaviy xizmatlarda (131,2 %) o'sish kuzatilgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



■ 2022- y. yanvar-fevral

■ 2023- y. yanvar-fevral

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,2 %**ni tashkil etdi, bu esa **425,8** mlrd so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **376,0** mlrd so'mga yoki umumiy hajmning **25,6 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022- y.
yanvar-fevral
Xizmatlar hajmi
376,0 mlrd so'm

O'sish sur'ati
109,1 %

Ulushi
25,6 %



2023- y.
yanvar-fevral
Xizmatlar hajmi
425,8 mlrd so'm

O'sish sur'ati
100,0 %

Ulushi
24,2 %



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **75,0 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**




**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

9,6 %

75,0 %

15,4 %



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **75,8 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **419,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **316,1** mrd so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,9** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **21,5** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **103,5** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **119,5** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **131,7** % ga yetgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,3** %ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **7,2** % darajada qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

90,3 %

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

7,2 %

2,5 %

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,3** %ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,6** %ga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

**2022- y.
yanvar-fevral**

**77,9
mlrd so'm**

120,5 %

5,3 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

23,6 mlrd so'mga

**2023- y.
yanvar-fevral**

**101,5
mlrd so'm**

126,4 %

5,8 %





2023- yil yanvar-fevral



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,0 %**ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. yanvar-fevral

2023- y. yanvar-fevral



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-fevral oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,7 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**55,1
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**69,9
mlrd so'm**

**2022- y.
yanvar-
fevral**



**2023- y.
yanvar-
fevral**

2023- yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **69,9** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,0** % ni tashkil etdi.

93,3 %

O'sish sur'atlari, % da

114,3 %

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,3** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi **55,1** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2021- yilga nisbatan o'sish **93,3** % darajasida qayd etilgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd so'm

35,1

2022- y.
yanvar-fevral

42,9

2023- y.
yanvar-fevral



O'sish
sur'ati, % da

101,4

99,4

2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **7,8** mlrd so'mga ortdi.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2023- y. yanvar-fevral

79,9 %

20,1 %



19,3 %

80,7 %

2022- y. yanvar-fevral

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **79,9 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilda ularning ulushi **80,7 %**ni tashkil etgan.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-fevral

2023- y. yanvar-fevral

31,4
mlrd so'm

**Xizmatlar
hajmi**

37,3
mlrd so'm

112,7 %

**O'sish
sur'ati**

102,5 %

2,1 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,1 %





2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	Umumiy hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, 2022- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	100,0	107,3
Urganch shahri	35,2	108,6
<i>Xiva shahri</i>	4,5	112,4
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	5,6	104,4
Gurlan	5,4	111,9
Qo'shko'pir	4,9	102,0
Urganch	7,6	104,4
Hazorasp	7,3	103,5
Tuproqqal'a	2,6	121,9
Xonqa	7,4	113,4
Xiva	5,4	102,0
Shovot	5,5	106,0
Yangiariq	4,7	103,0
Yangibozor	3,9	104,0

2023- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **35,2 %** (2022- yilda **34,7 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Tuproqqal'a tumanida kuzatilgan – **2,6 %**.



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2023- y.	2022- y.
Xorazm viloyati	1 758,7	107,3	112,8
Urganch shahar	617,1	108,6	113,4
Xiva shahar	79,9	112,4	111,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	97,9	104,4	119,8
Gurlan	95,6	111,9	105,8
Qo'shko'pir	87,0	102,0	111,9
Urganch	134,3	104,4	103,0
Hazorasp	128,4	103,5	107,4
Tuproqqal'a	46,6	121,9	138,5
Xonqa	129,7	113,4	112,0
Xiva	94,3	102,0	124,1
Shovot	96,6	106,0	111,8
Yangiariq	83,3	103,0	114,4
Yangibozor	68,0	104,0	115,9

**) Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



2023- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**906,0
ming so'm**

**136,0 ming
so'mga**

2023- yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **906,0** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,5** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash

uchun:

2022- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **770,0** ming so'mni tashkil etgan.

105,5 %

O'sish sur'ati



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 62-224-65-16